

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “MEN KIMDAN
MINNATDOR BO’LAYIN, KIMDAN” SHE’RI XOTIRA, VAQT,
ICHKI BOLALIK VA ONA OBRAZLARI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmida rus va o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos poetik qarashlarga va tafakkurga ega bo‘lgan mashhur shoir Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. U o‘zining asarlarida, xoh nazmiy bo‘lsin, xoh nasriy bo‘lsin, inson ruhiyatini eng nozik qatlamlarigacha kirib borib ochib berishi bilan ajaralib turuvchi taniqli ijodkorlardan biri sanaladi. Uning asarlarini, ayniqsa she‘rlarini o‘qir ekanmiz shoir uchun tashqarida, real hayotda yuz berayotgan voqealıklardan ko‘ra ichki olam, shovqinli dramtizmdan ko‘ra sokin, lekin teran falsafiy mushohada ustuvor ekanligini anglaymiz. Faynberg uchun she‘r-bu tasvir emas, kechinma; voqea emas, xotira; hikoya emas, ichki suhbatdir. Maqolada tahlil qilmoqchi bo‘lganimiz “Men kimdan minnatdor bo‘layin, kimdan” she‘ri ham ana shu poetik yo‘nalishning yorqin namunasi bo‘lib, unda lirik qahramon o‘z hayoti, bolaligi, onasi va vaqt bilan bo‘lgan murakkab munosabatlarni chuqur ichki monolog ko‘rinishida ifodalaydi. She‘rda ajoyib badiiy qurilmalar orqali ruhiy tubsizlik falsafasi ko‘rsatiladi. She‘rdagi beg‘ubor bolalik tasvirlari o‘ta ta‘sirli bo‘lib, kitobxonni ham qalb tubida yashirinib yotgan bolalik xotiralariga qaytaradi. She‘r kompozitsiyasi halqasimon shaklda yozilgan bo‘lib she‘r bitta satr bilan boshlanib xuddi shu satr bilan o‘z nihoyasiga yetadi. Demak, bu maqola davomida yurorida keltirganimiz Faynberg she‘r gulshanining durdonalaridan biri bo‘lmish “Men kimdan minnatdor bo‘layin, kimdan” she‘rini batafsil tahlil qilib, undagi falsafiy qarashlarni ochishga harakat qilamiz hamda badiiy qurilmalarning ifodalangan falsafiy mushohadalarni ochib berishdagi roli kabi jihatlarga e‘tibor qaratamiz.

Abstract: In the second half of the 20th century, a famous poet with unique poetic views and thinking in Russian and Uzbek literature is Alexander Arkadyevich Feinberg. He is considered one of the famous creators who, in his works, whether in verse or prose, penetrates and reveals the most delicate layers of the human psyche. When we read his works, especially his poems, we understand that for the poet, the inner world is more important than the events taking place outside, in real life, quiet but deep philosophical observation is more important than noisy drama. For Feinberg, poetry is not an image, but an experience; not an event, but a memory; not a story, but an internal conversation. The poem “From whom should I be grateful, from whom”

that we are going to analyze in the article is also a vivid example of this poetic direction, in which the lyrical hero expresses his expresses his life, childhood, mother, and complex relationships with time in the form of a deep internal monologue. The poem shows the philosophy of spiritual abyss through wonderful artistic devices. The images of innocent childhood in the poem are very touching and bring the reader back to the childhood memories hidden deep in the heart. The composition of the poem is written in a loop, the poem begins with one line and ends with the same line. Therefore, in this article, we will analyze in detail the poem "Men kimdan minnatdor bo'layin, kimdan", one of the masterpieces of Feinberg's poetry collection, which we cited at the beginning, and try to reveal the philosophical views in it, and we will pay attention to aspects such as the role of artistic devices in revealing the philosophical observations expressed.

Аннотация: Во второй половине XX века Александр Аркадьевич Файнберг — известный поэт с уникальными поэтическими взглядами и мышлением в русской и узбекской литературе. Он считается одним из выдающихся творцов, чьи произведения, будь то стихи или проза, проникают в самые тонкие слои человеческой психики и раскрывают их. Читая его произведения, особенно стихи, мы понимаем, что для поэта внутренний мир важнее событий, происходящих в реальной жизни; тихие, но глубокие философские размышления важнее шумной драмы. Для Файнберга поэзия — это не образ, а опыт; не событие, а воспоминание; не история, а внутренний диалог. Стихотворение «От кого мне быть благодарным, от кого», которое мы будем анализировать в статье, также является ярким примером этого поэтического направления, в котором лирический герой выражает свои чувства, свою жизнь, детство, мать и сложные взаимоотношения со временем в форме глубокого внутреннего монолога. Стихотворение демонстрирует философию духовной бездны посредством прекрасных художественных приемов. Образы невинного детства в стихотворении очень трогательны и возвращают читателя к детским воспоминаниям, скрытым глубоко в сердце. Композиция стихотворения построена по принципу замкнутого круга: оно начинается с одной строки и заканчивается той же строкой. Поэтому в данной статье мы подробно проанализируем стихотворение «Men kimdan minnatdor bo'layin, kimdan», один из шедевров поэтического сборника Файнберга, который мы цитировали в начале, и попытаемся раскрыть содержащиеся в нем философские взгляды, уделяя внимание таким аспектам, как роль художественных приемов в раскрытии выраженных философских размышлений.

Kalit so'zlar: lirik qahramon, bolalik motivi, xotira fenominoni, vaqt falsafasi, ona obrazi, poetik makon, ramziylik, metafora, kontrast, anafora, nostalgiya, Badiiy qurilma, lirik-falsafiy tafakkur, moviylik ramzi, tom ramzi, ayvon

timsoli, onto-

logik mushohada.

Keywords: lyrical hero, childhood motif, memory phenomenon, philosophy of time, mother image, poetic space, symbolism, metaphor, contrast, anaphora, nostalgia, artistic device, lyrical-philosophical thought, blue symbol, roof symbol, porch symbol, ontological observation.

Ключевые слова: лирический герой, мотив детства, феномен памяти, философия времени, образ матери, поэтическое пространство, символизм, метафора, контраст, анафора, ностальгия, художественный приём, лирико-философская мысль, синий символ, символ крыши, символ крыльца, онтологическое наблюдение.

“Men kimdan minnatdor bo’layin, kimdan” she’ri Aleksandr Arkadevich Faynbergning lirik-falsafiy yo’nalishdagi eng ta’sirli asarlaridan bo’lib, unda asar lirik qahramonning o’z o’tmishi bilan ichki muloqoti, vaqtning nisbiyligi hamda insonning borliq oldidagi ruhiy holati badiiy qurilmalar orqali yoritiladi.

Men kimdan minnatdor bo’layin, kimdan —

Borlig’imda hamon yashaydi tirik
moviyrang va munis bu aziz hovlim,
eshiksiz pod’ezdlar,
nastarin devorlar.

Yuragimda sevinch, qayg’u yugurik —

Men kimdan minnatdor bo’layin, kimdan?

She’r ushbu misralar bilan boshlanib ilk o’qishdayoq insonni o’yga cho’mdiradi. She’r kompasitsion jihatdan savol bilan boshlanib, qahramon shu savolga qayta-qayta murojaat qiladi:

“Men kimdan minnatdor bo’layin, kimdan?”

Bu savol bir odamga emas, balki butun bir insoniyatga yuzlanib berilayotganday tuyuladi. Minnatdorlik hissi bu o’rinda ontologik kategoriya darajasiga ko’tariladi. Lirik qahramon shu savolga javob izlar ekan, o’zining shakillanishida asosiy rol o’ynagan aziz makon- “moviyrang va munis hovli”ni eslar ekan, u aslida o’z borlig’ining ildizlariga nazar tashlaydi.

“Borlig’imda hamon yashaydi ” misrasining mazmuni shundan iboratki, o’tmish vaqt jihatidan olib qaralganda qahramonda yiroqlarda qolib ketdi, ammo uning qalbida bolalikning samimiy xotiralarini muhrlab ketdi. Endi u qachon o’sha hovliga kelsa, yoshlikning beg’ubor onlari o’tgan, “moviyrang va munis” deya ta’riflangan bu joy asli olis, lekin qalbda yaqin xotiralar tug’yoniga sabab bo’ladi. To’g’ri, bu makon eski. Biroq uning har burchagi, undagi har bir buyum, hatto eshiksiz poyezdlar-u nastarin devorlar qahramon uchun nechog’lik qadrlilik ekanini tasvirlash usulidan ham

anglash mumkin.”Yuragimda sevinch,qayg’u yugurik” jumlasida esa ichki kechinmalar murakkabligini,quvonch va qayg’uni qarama-qarshilash orqali ochib berish usulidir.Qahramon o’zi unib o’sgan yoshligining ajralmas bo’lagiga tashrifidan xursand,lekin uni yana nimadir o’yulantirmoqda,sevinchiga qarshi qayg’uni keltirib chiqarmoqda.Demak,she’rda xotira oddiy eslash emas,balki mavjudlikning davomiy shaklidir.

Asarda tasvirlangan hovli poezd ,chordoq,tom kabi detallar shunchaki realistik fon emas,balki poetik makon sifatida xizmat qiladi.Bu makon lirik qahramon ongida muqaddas va daxlsiz hududga aylantiriladi.

Bu yerda tom obrazi ramziy ma’noni anglatib kelgan.Tom-yuqorilik,erkinlik,bolalik sho’xligi timsolidir.She’r davomida keltirilgan “O’sha tomdan tushib bo’lmas” satri ramziy ma’noda o’tmishdan butunlay uzilish imkoni yo’qligini ifodalaydi.Bu yerda makon vaqtni muzlatib qo’ygan xotira maydoniga aylanadi.

Moviy rang tasviri ham semantik jihatdan muhim.Moviylik-poklik,osmon,beg’uborlik,abadiylik ramzi sifatida she’rning umumiy ohangiga ruhiy yengillik va ma’naviy kenglik baxsh etadi.

Onamga aytaman:

— Tezda qaytaman.

Ko’rshapalak qanotidan uzilar shamol.

Chordoq derazasi.

Undan — tomga bemalol.

Jaranglab ketadi qizigan temir.

Boshim uzra – tubsizlik emas,
men tubsizlik uzraman go‘yo..

Mazkur parcha she’rning eng dinamik va falsafiy nuqtalaridan biri hisoblanadi.”Onam aytaman:- Tezda qaytaman” jumlasini orqali real voqea(qahramonning tomga chiqishi) va ichki xotira birlashadi.Kompazitsion jihatdan voqelik asta-sekin falsafiy umumlashmag o’quvchini yetaklab bormoqda.”Ko’rshapalak qanotidan uzilar shamol”- poetik metafora.Bu obraz orqali tunda,qorong’ulikda sodir bo’ladigan harakat tasvirlanadi.Shamolning “uzilishi” vaqtning o’tkinchiligini ifodalaydi.”Chordoq derazasi.Unda tomga bemalol” – qisqa,parchalangan gaplar xotiraning kadr-kadr tiklanib borishi uchun xizmat qiluvchi omil.

Sintaktik jihatdan yuqoridagi parchada qisqa va parchalangan gaplar talaygina.Bu bolalik xotirasining xarakterini ,ichki hayajon va tezkor harakatini,qahramonning ruhiy dinamikasini ifodalab kelyapti.Har bir nuqta va pauzalar she’rga ichki ritm beradi.Sintaktik uzulishlar xotiraning uzulib-uzulib tiklanishi ifodasidir.

Chordoq,tom,ko'rshapalak,tubsizlik majoziy ma'noni,ya'ni ramziy ma'noni ifodalaydi.Tom-erkinlik,chordoq-o'tish makon,ko'rshapalak-tun sirli vaqt,tubsizlik esa cheksizlikni tasvirlaydi.Ayniqsa,tubsizlik so'zi bu o'rinda she'rning falsafiy markazidir.

Parchaning kulminatsion nuqtasi bu -"Boshim uzra-tubsizlik emas,men tubsizlik uzraman go'yo..." jumlasidir.Mana shu yerda biz inson va butub borliq o'rtasidagi nisbiylikka kiritilgan o'zgarishga guvoh bo'lamiz.Xuddi inson osmon ostida emas,cheksizlik ichida muallaq turgandek his qilamiz.

Borliq –betin. Ko‘rinmaydi tun.

Oqadi shomlar.

Yulduzlar charaqlar tiniq va nekbin.

Ayvondan sas kelar: — To‘qqiz... uyga kir...

Onamni aldayman: — Hozir, ha, hozir...

O‘sha tomdan tushib bo‘lmas

Qabrning lavhi qadar.

Qirqdaman...

Unda hali to‘qqiz bo‘lmagan...

Undan ketmas bahor, vaqt ham bekadar.

Ayvon va moviylik.

Onam ayvonda...

Yuqorida keltirilga parchada "Yulduzlar charaqlar tiniq va nekbin" misrasiga duch kelamiz.Mana shu joyda yulduzga nisbatan "nekbin" sifatini berib shoir jonlantirish san'atidan ajoyib tarzda foydalanadi.Osmon manzarasi endi ruhiy holat bilan bog'liqlikni yuzaga keltiradi: tiniqlik-bolalik pokligining,nekbin-beg'ubor ishonchning razmi sifatida ko'rsatiladi."Unda ketmas bahor" misrasida bahor abadiy yoshlik faslidir.Shoir bu bilan bolalik xotiralari abadiy,ular har doim yosh demoqchidek.

She'rning so'nggi parchalarida qisqa gaplar orttib boradi."Qirqdaman","Ayvon va moviylik", "Onam ayvonda..." jumalari bunga misol bo'ladi.Qahramon o'sha yoshlik xotiraloriga shunchalik kirishib ketganki,uning qulog'iga onasining soat to'qqiz bo'lganini aytib uyga chaqirishi eshitaladi.U hozir qirqda,biroq eslayotgan xotiralari Ichida u hali ham yosh,soat esa o'shanda hali to'qqiz ham bo'lmagan.Shoir o'zi o'tmishi Ichida qotib turgan bo'lsa-da,anglab turibdi endi aldaydigan mehriboni yo'q.Buni uning "O'sha tomdan qabrning lavhi qadar pastga tusha olmasligini" aytayotganidan anglaymiz.Lekin uning haqiqatni tan olgisi kelmaydi.U xotiralar bahor kabi navqiron va abadiy,ayvon kabi keng, moviy rang kabi beg'ubor.Onajonisi esa uni ayvonda kutib turibdi.Shu oxirgi qatorlar shu qadar ta'sirliki,o'quvchi ko'ziga

beixtiyor yosh kelishi tabiiy.

Bu she’rda ona Faynberg uchun ruhiy tayanch, hayot va mavjudlik manbaidir. Demak, u asar falsafasining markaziy nuqtalaridan biri. U bolalik xotiralari, vaqt, borliq haqidagi mushohadalarga uyg’unlashib ketgan

Xulosa qilib aytganda, bu she’r Faynberg asarlari ichidagi gultojlardan biri. Uni o’qigan kitobxon har bir qatorda hayot falsafasi haqida o’yga botadi. O’z bolaligini, o’tmishda bo’lib o’tgan beg’ubor damlarini ko’z o’ngiga keltiradi. Xuddi hali ham boladek, ko’chadan onasi jon kuydirib chaqirayotganday his qiladi. Ammo she’r yakunida yana reallikka qaytib o’shanda shoir nelarni his etib bu she’rni yozganini qalbdan anglaydi, bexos ko’ziga yosh oladi. Haqiqatan, shoir qaytishni xohlayotgan yoki hayolan qaytgan damlari, ayniqsa ayvonda turgan onajonisini ko’rishga bo’lgan xohishi inson ruhiga, qalbiga juda qattiq ta’sir qiladi. Aleksandr Arkadevich Faynberg “Men kimdan minnatdor bo’layin, kimdan” she’rini yozganida yetuk inson bo’lib yetishgan bo’lsa-da, qalbida jajji bolakay bo’lib qolganini birgina shu she’rdan ham anglab yetish mumkin. Bu esa shoir shaxsiga, uning ijodiga, hayotiga bo’lgan qiziqish nega yuqori ekanini isbotlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. <https://arm.samdchti.uz/library/download/692>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. <https://esiconf.org/>
4. <https://fayllar.org/aleksandr-arkadivich-faynberg-hayoti-ijodining-bugungikundagi-v2.html>
5. <https://n.ziyo.com/>
6. <https://n.ziyo.com/>